

INVARIANT SINIF SOATLARINING VARIATIV METODIK – DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Salomov G'ulom Yuldoshevich

**Termiz iqtisodiyot va servis universiteti dotsenti vazifasini bajaruvchi,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).**

gulom.salomov1188@mail.ru. Tel: + 998996779488

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15253908>

Annotatsiya. Mazkur maqolada invariant sinf soatlarining variativ metodik-didaktik ta'minotini takomillashtirishda interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritiladi. Interfaol metodlarning o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda ta'lim samaradorligini oshirishdagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Аннотация. В данной статье рассматривается значимость использования интерактивных методов в совершенствовании вариативного методико-дидактического обеспечения инвариантных классных часов. Научно анализируется роль интерактивных методов в повышении активности учащихся, развитии их самостоятельного мышления и повышении эффективности обучения.

Annotation. This article discusses the importance of using interactive methods in improving the variative methodological and didactic support of invariant class hours. The role of interactive methods in increasing student engagement, developing independent thinking, and enhancing the effectiveness of education is analyzed from a scientific perspective.

Kalit so'zlar. invariant, sinf soatlari, variativ, metodika, didaktik, ta'minot, interfaol metodlar, ta'lim samaradorligi, ma'naviy, axloqiy, dunyoqarash, bilim, tarbiya, an'anaviy, interfaol.

Ключевые слова. инвариант, классные часы, вариативность, методика, дидактика, обеспечение, интерактивные методы, эффективность обучения, духовность, нравственность, мировоззрение, знания, воспитание, традиционный, интерактивный.

Keywords. invariant, class hours, variative, methodology, didactics, support, interactive methods, educational effectiveness, spirituality, morality, worldview, knowledge, upbringing, traditional, interactive.

Kirish. Har bir millatning saodati, davlatning tinchlik va rohati yoshlar tarbiyasiga bog'liq. Inson hayoti davomida jismoniy va ruhiy jihatdan o'zgarib boradi. Bolalik, o'smirlik, o'spirinlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan o'sishi, o'zgarishi tufayli shaxs sifatida kamolga yetadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida, bola jamiyat a'zosi kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi.

Tarbiyaning muvaffaqiyati ko'p jihatdan bola shaxsining o'ziga xos xususiyatlari, u yashayotgan muhitning ta'sirini hisobga olishga bog'liq. Bola oila a'zolari, tarbiyachi, o'quvchi o'rtoqlari, oilaga yaqin kishilar bilan munosabatda bo'ladi.

Umumta'lim maktablarining 7-11-sinf o'quvchilariga sinf soatlarini tashkil qilishda urf-odatlarimiz, milliy qadriyatlarimiz, mamalakatimiz hududlari sharoitlarini inobatga olish, uning tarmog'ini kengaytirib, hozirgi zamon talablari darajasida isloh qilish bugungi kunning dolzarb masalasi. Ayni paytda yangi pedagogik va Axborot texnologiyalari qonuniyatlari asosida

pedagog olimlarimiz ta'lim muassasalarida sinf soatlarini yanada samarali tashkil etishning turli shakl va metodlarini ishlab chiqish yo'nalishida tegishli tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar.

Umumta'lim maktablarining 7-11-sinf o'quvchilariga sinf soatlarini o'tkazish jarayonida o'quvchilar ongida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. 7-11-sinf o'quvchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijobiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhokama va natijalar. Hozirgi kunda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va ularga zamonaviy bilim berish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Invariant sinf soatlari bu borada muhim o'rin tutadi, chunki ular o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashda xizmat qiladi. Mazkur maqolada invariant sinf soatlari uchun variativ metodik-didaktik ta'minotni takomillashtirishda interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Invariant sinf soatlarining variativ didaktik ta'minotini takomillashtirishning ahamiyati shundan iboratki, invariant sinf soatlari umumta'lim maktablaridagi o'quv jarayonining ajralmas qismi bo'lib, ular o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish, ma'naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirish va ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qiladi. Ushbu mashg'ulotlar an'anaviy yondashuvlar asosida tashkil qilinganda o'quvchilarning qiziqishini kamaytirishi mumkin. Shu sababli, ularning variativ metodik-didaktik ta'minotini zamonaviy interfaol metodlar asosida yangilash zarurligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Invariant sinf soatlarining variativ metodik ta'minotini takomillashtirishning ahamiyati variativ metodik-didaktik ta'minot ta'lim jarayonining moslashuvchanligini oshirishga yordam beradi. U o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olib, individual va guruhli ishlash imkoniyatlarini yaratadi. Bu jarayonda interfaol metodlarning qo'llanilishi ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Interfaol metodlarning roli va ularning turlari.

Interfaol metodlar – bu o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirok etishiga qaratilgan usullar majmuasidir. Ular quyidagi asosiy jihatlari bilan ajralib turadi:

- Munozaralar va bahs-munozaralar – o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. Invariant sinf soatlarida turli mavzularda bahs-munozaralar uyushtirish orqali o'quvchilar fikrlash qobiliyatini mustahkamlanadi.
- Aqliy hujum – yangi g'oyalarni ilgari surish va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradi. O'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalashlari uchun muhokama platformasi yaratish mumkin.
- Rolli o'yinlar – hayotiy vaziyatlarni modellashtirish orqali o'quvchilarning ijtimoiy ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, invariant sinf soatlarida etika yoki muloqot madaniyati bo'yicha rolli o'yinlar tashkil etish orqali real hayotiy muammolarni yechishga yordam beradi.
- Jamoaviy loyihalar – hamkorlikda ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, ma'lum bir mavzu bo'yicha loyiha ishlab chiqishadi va taqdimot qilishadi.

- Klaster metodi – mavzuga oid asosiy tushunchalarni guruhlab, ularga bog'liq fikrlarni tizimli tarzda joylashtirish imkonini beradi. Bu metod o'quvchilarga mavzuni yaxlit tushunishiga yordam beradi.
- INSERT metodi – matn bilan ishlash jarayonida muhim ma'lumotlarni ajratish, o'quvchilar fikrini aniqlash va tahlil qilishga yordam beradi. Invariant sinf soatlarida turli matnlar bilan ishlash orqali o'quvchilarning tahliliy fikrlash qobiliyati rivojlantiriladi.
- “Balans shkalasi” metodi – qarama-qarshi nuqtai nazarlarni baholash, dalillar asosida fikr bildirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Invariant sinf soatlarida biror muammoni har ikki tomondan yoritish orqali o'quvchilar obyektiv baholashga o'rganadi.
- “Fikrlar karuseli” – o'quvchilarning fikrlarini erkin ifodalashiga, muhokama qilishga va yechim topishga undaydi. Bu metod orqali invariant sinf soatlarida mavzularini chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratiladi.
- Kichik guruhlar bilan ishlash – o'quvchilarni faollikka chorlaydi, ularning hamkorlikdagi ishlash va fikr almashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Guruhlarga bo'linib ishlash orqali har bir o'quvchi o'zining fikrini bayon etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Interfaol metodlardan foydalangan holda o'quv jarayonini tashkil qilish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Interfaol ta'lim metodlarning samaradorligi quyidagi omillar bilan belgilanadi:

- O'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishi;
- Mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyatlarining rivojlanishi;
- O'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirish va amaliy qo'llash imkoniyatlarining kengayishi.

Xulosa. Invariant sinf soatlarining variativ metodik-didaktik ta'minotini takomillashtirishda interfaol metodlardan foydalanish 7-11-sinf o'quvchilarning ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirish bilan birga, ularning ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Shu bois, ta'lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, jumladan, interfaol metodlardan foydalanish doimiy ravishda takomillashtirib borilishi lozim. Interfaol metodlarning keng qo'llanilishi ta'lim jarayonida 7-11-sinf o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning bilim olish jarayonini yanada samarali bo'lishiga erishiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov G.Yu. Pedagogical principles of spiritual-moral education of students of X-XI grades in classroom hours. 2023. In Volume 2, Issue 7 of International scientific journal of “Science and Innovation”, 221-223. <https://doi.org/10.5281/zenodo.8200183>.
2. Salomov G.Yu. Using the boomerang technology in conduct of classrooms in invariant method to high class students of university schools. 2024. Volume 05, Issue 10 Current Research Journal Of Pedagogics (ISSN –2767-3278) 02 Pages: 179-182. Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-30>.
3. Salomov G.Yu. Class hours for high school students in the invariant method use of

mosaic thermal work method in transfer. 2024. Volume 05, Issue 10 Current Research Journal Of Pedagogics (ISSN –2767-3278) 02 Pages: 183-187. Crossref doi: <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-05-10-31>.

4. Salomov G.Yu, Ganiev H.Yu. Use of innovative technologies in conducting educational hours for X-XI grade students. 2022. Volume 04 Issue 02-202223 The American Journal of Social Science and Education Innovations (ISSN –2689-100x) 02 Pages:23-25.

5. Hasanboyeva O. “Ta’limda interfaol metodlar” – Toshkent: O‘zbekiston, 2019.

6. Nizomov R. “Zamonaviy ta’lim metodlari” – Toshkent: Fan, 2021..

